

O'ZBEKİSTONDA LOKLI MINIATYURA SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA IMKONİYATLARI

Ro'zmetov Quvondiq Shonazarovich

Urganch davlat pedgogika instituti, San'atshunoslik kafedrasи katta o'qituvchishi. kuvondiqruzmetov@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada lokli miniatyura rangtasvir san'atini tarixiy rivojlanish jarayonlari, XX asr oxiri– XXI asr boshlaridagi qayta tiklanishidagi ijodiy jarayonlar o'r ganilgan. O'zbekistonda miniatyura san'atining tarixiy rivojlanish bosqichlari, o'zbek milliy rangtasvir san'atini tiklashga bulgan xarakatlar, fidoyi insonlar, miniatyurani san'atini milliy rangtasvir sifatida tutgan o'rni, Lokli miniatyura rangtasvir san'atga rivoji, hamda xozirgi kunda lokli iniatyura san'atini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan muxim ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Markaziy Osiyo, lokli miniatyura, rangtasvir, tosh qog'oz, yog'och o'ymakorligi, islimiy, naqsh, kompozitsiya.

Anotatsiya. V dannoy state rassmatrivaetsya istoricheskoe razvitiye iskusstva lakovoy miniatyurnoy jivopisi, tvorcheskiy protsess yego vosstanovleniya v konse XX – nachale XXI vekov. Informatsiya ob istoricheskix etapax razvitiya iskusstva miniatyury v Uzbekistane, usiliyax po vozrojdeniyu uzbekskogo natsionalnogo iskusstva, samootverjennix lyudyax, rol iskusstva miniatyury kak natsionalnoy jivopisi, razvitiy mestnoy miniatyurnoy jivopisi, a takje provodimoy rabote dlya razvitiyu mestnogo iskusstva miniatyury.

Klyuchevыe slova: Srednyaya Aziya, lakovaya miniatyura, rospis, pape-mashe, rezba po derevu, ornament, uzor, kompozitsiya.

Abstract. This article discusses the historical development of the art of lacquer miniature painting, the creative process of its restoration in the late XX -early XXI centuries. Information about the historical stages of the development of miniature art in Uzbekistan, efforts to revive the uzbek national art, selfless people, the role of miniature

art as a national painting, the development of local miniature painting, as well as ongoing work to develop local miniature art.

Key words: Central Asia, lacquer miniature, painting, papier-mâché, woodcarving, ornament, pattern, composition.

Markaziy Osiyoda lokli miniatyura san'ati rivojlanish jarayonlari uzoq tarixiga borib taqaladi. Lokli miniatyuralar asosan, XIV- XVIII asrlarda qadimiy qo'lyozmalar muqovalarini bezashda, qalamdon va kitoblarining g'ilofi, oyna idishlar kabi jihozlar uchun tosh qog'oz uslubida yasalib, loklangan maishiy buyumlar xolatida bizgacha yetib kelgan. Keyinchalik esa amaliy san'at ko'rinishida rivojlanib buyumlar solish uchun mo'ljallangan qutichalarning bezagi sifatida keng tarqalgan san'at turi bo'lgan. Xozirgi davrga kelib, o'z miniatyura asarlarini turli satx va ashyolarga ishlab, jahonda bo'layotgan turli ko'rgazma va tanlovlarda namoish qilib kelayotgan O'zbekistonlik rassomlarining safi kengayib, sifati oshib borishi, ushbu san'at turiga nafaqat respublikamiz balkim dunyo miqyosida e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir. Hususan, O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon va Eron kabi davlatlarning hamkorligidagi harakatlari natijasida, 2020 yilning 16 dekabrida YuNESKOning Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasi XV sessiyasida ko'p millatli "Miniatyura san'ati"ni YuNESKOning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgani, miniatyura san'atini o'rganish masalalarini dolzarbligini oshirdi.

Markaziy Osiyo hududida XIV- XVIII asrlarda amaliy san'atning bir turi hisoblangan lokli buyumlar rivojlanish tarixini o'rganadigan bo'lsak, dastlab qadimgi Xitoy, Yaponiya, Koreya xalqlarida milliy san'at yo'nalishlaridan biri sifatida mavjud bo'lgan. Yevropa mamlakatlariga, ularning Xitoy bilan aloqasi rivojlanib, savdo yo'llari orqali avval tayyor maxsulotlar, so'ngra lokli jihozlarni tayyorlash texnologiyalari kirib borgan. Keyinchalik bu texnologiyalar Fransiya-Rossiya o'zaro savdo diplomatik aloqalari natijasida rus shaharlariga tarqaladi. Rus savdogarlaridan P.I.Korobov Danilkovoe (keyinchalik Moskva atrofidagi Fedoskino qishlog'iga qo'shilib ketadi) qishlog'ida birinchilardan bo'lib lokli mahsulotlarni, ya'ni tamaki idishlari, ayollar upa idishi, taqinchoqlar qutichasi sifatida chiqara boshladi (1798). Bu qutichalarning asosi karton bo'lib, Lyon yog'ida qaynatilib

ishlov berilgach, sirtida yevropa, rus rassomlarining rangtasvir asarlaridan nusxa ko‘chirib bezatilgan.

XX asr boshlarida O‘zbekistonda deyarli yo‘qolib ketish darajasiga kelib qolgan edi. Bu san’at turi ananalarini qaytadan tiklash va rivojlantirish bo‘yicha 1937-yillarda Rossiyaning palex qishlog‘idan mutaxassis rassom I.Chepurin O‘zbekiston san’at muzeyiga taklif etilgani haqida ma’lumotlar bor. [1. b.17]

1980-yil boshlarida Rossiyada lokli miniatyura ishlash mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olib, amaliy tajriba orttirgan Niyozali Xolmatov O‘zbekistonga taklif etilgan. O‘zbekiston Rassomlar uyushmasining Badiiy fondi qoshida “Usto”(1978) Respublika maxsus ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi ochiladi. Birlashma qoshida taniqli zargar, kulol, kandakor, to‘quvchi, gul bosuvchi, yog‘och va ganch o‘ymakorlari, badiiy bezak ustalari birlashib o‘z faoliyatlarini “Badiiy bezaklar eksperimental ilmiy-ishlab chiqarish ustaxonasi”da boshlashgan.[2. b.49] Birlashma qoshida Xolmatovning O‘zbekistonga kelib ijodiy faoliyat boshlashi uchun, Toshkent shahrida “Lokli miniatyura” ustaxonasi(1980) ochiladi. Bu birlashmaga miniatyura yo‘nalishida mustaqil izlanayotgan Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, G‘ayrat Kamolov, Alisher Yo‘ldoshev, Toir Boltaboev, Mirhamid Sabirov, Xurshid Nazirov, Munira Sotiboldieva va boshqa o‘sha davrdagi yosh ijodkor rassomlar yig‘ildi. Bu ustaxona rahbarligiga Chingiz Axmarov ijodiy yo‘nalish bo‘yicha taklif qilingan.

XIX asr oxiri Markaziy Osiyo hududida xonliklar tugatilishi va o‘sha davr industrial rivojlanish bosqichlarida lokli buyumlar ishlab chiqarish O‘zbekistonda yo‘qolib ketgan. N.Xolmatovning Rossiyada olgan bilim va orttirgan tajribalari asosida, 1980-yillardan boshlab O‘zbekistonda lokli miniatyura an’analarni atrofida yig‘ilgan yosh ijodkor rasomlar bilan tiklashga kirishiladi va lokli buyumlar ishlab chiqarish rivojlangan markazi tashkil qilinadi. Rassomlar u yerga borib tosh qog‘oz tayyorlash sirlari, bosqichlari bilan yaqindan tanishib kelishadi. Ushbu miniatyura markazlarga borib, tosh qog‘oz tayyorlash bo‘yicha ular orttirgantajribalari o‘rganiladi va lokli miniatyura san’ati qayta tiklash bo‘yicha amaliy ishlar boshlanadi.

Xalq amaliy san'ati va an'analarini tiklash va rivojlantirishmaqsadida 1987 yil "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish markazi tashkiletildi. Bu esa "Usto" birlashmasi tashkil etilgandan sung qisqa vaqtichida amaliy san'at sohalari rivoj topib, ustalarning safi ko'payganidan dalolat beradi. Shunisi diqqatga sazovorki, o'sha paytlardayoq (1970-yillar oxirida) Toshkentda "Usto" birlashmasi faoliyati bilan bir vaqtda Mahalliy sanoat vazirligi va Yengil sanoat vazirligi korxonalarida lokli miniatyuralar tushurilgan buyumlar yaratish va ishlab chiqarishga urinishlar bo'lgan edi. [1.b.18] Shu bilan birga birlashmaning o'ziga xos ijodiy yo'nalishlari shakllana boshlagan. Birlashmaga jalb qilingan ustalar tomonidan ishlagan lokli miniatyura asarlarida, Alisher Navoiy dostonlari, xalq dostonlari, ertaklar kabi bir-biriga o'xshash mavzularda bo'lsada, lekin kompozitsion tuzilishi, rangdorlik va har birini o'ziga xos yechimi bor. Masalan N.Xolmatov nafaqat lokli quticha balkim zargarlik sohasini ham o'r ganib kuticha asosini melhior, kumush kabi metallardan badiiy uslubda tayyorlab ustidagi qopqoq qismini lokli miniatyura bilan bezatgan. Zargarlik bilan uyg'unlikda ishlangan ishlariga "Xachir ustida", "Ertak", "Ariqbo'yida", lokli qutichalariga esa "Layli va Majnun"(1982), "Mehr va Mushtariyning uchrashuvi"(1985), "Farhod va Shirin"(1982) kabi asarlarini keltirishimiz mumkin. Lokli miniatyura sohasida Sh.Muhamedjonovning qutichalarga ishlangan "Siyovushning olov bilan olishuvi"(1982), "Farhodning Suqrot bilan uchashuvi"(1983), T.Boltaboevning "Go'ro'g'li"(1986), G'.Komolovning "Bahrom va Dilorom"(1985), "Farhodning dev bilan olishuvi"(1989), Alisher Yo'ldoshevning "Aldar ko'sa"(1983) M.Sabirovni "Alovuddinning sehrli chirog'i"(1988), S.Qoraboev "Lavx"(1985), "She'riyat"(1985) kabi ko'plab asarlardan namunalarini keltirishimiz mumkin. Bu ijodiy tajribalar davrida yaratilgan asarlarni o'r ganarkanmiz, rassomlar unitilayozgan an'analarini tiklash va ular uchun yangilik bo'lgan ashyolarni o'r ganishga bo'lgan ishtiyoq 1980-yillarning ohiriga kelib miniatyura sohasida "lokli miniatyura" san'atini tiklanishiga olib keldi. Ularni Sharq miniatyura mavzularida ishlab, miniatyura an'analaridan ilhomlanib, lokli miniatyura sohadagi yangi kompozitsion yechimlar ustida ishlab, ijobjiy yutuqlarga erishishganini ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida tasviriylar va amaliy san'atni rivojlan-tirish, hususan badiiy hunarmandchilikni sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratila boshladi.

O'zbekistonda so'nggi ikki o'n yillikda miniatyura an'analarini tiklanishida juda ko'p ishlar amalga oshirildi, bu juda quvonarli hol. Katta avlod vakillari yaratgan namunalar va izlanishlar asosida Sh.Shoaxmedov, M.Po'latov, B.Xojdimetov, A.Isroilov, A.To'htaev, Sh.Shomansurov, Z.Xakimov, Q.Shoislomov, X.Muhiddinov, K.Omonov kabi keyingi avlod miniatyura rassomlari turli tuman ashyolarda o'z asarlarini yaratib kelayotganini ko'rishimiz mumkin.

2000 yillardan boshlab miniatyura rangtasviri ashyolari turi kengayib, xorijlik sayyoohlar talablariga moslashib sovg'abob ko'rinishlar kasb eta boshlali. Hususan, lokli miniatyuralarni quticha, yog'och lagan, metal, plastik, shisha kabi turli satxlarda amaliy san'atning boshqa urlari bilan sintez asosida yaratilayotganini ko'rishimiz mumkin. Buni B.Xojimetovning diametri 70 smni tashkil qiladigan "Bobur"(2011) nomli asarida, xoshiyasi yog'och o'ymakorlik kompozitsiyasi bilan bezatilib, o'yma islimiy gullar ichida sakkizta aylana ichiga va markazdagi yaxlit aylana qismiga miniatyura ishlangani o'ziga xos ijodiy yechim bo'lgan. B.Xojimetov miniatyura ishslashdagi o'ziga uslubini yog'och o'ymakorligi bilan uyg'unlashtirib betakror kompozitsiya yaratganini ko'rishimiz mumkin.



1.



2.

1.Б.Хожиметов. "Бобур". 2011. Ёгоч лаган, Д 70см, темпера, лок.

2.А.Тўхтаев. "Кампир, чол ва балиқ". 2016. Ёгоч панно, 30x30см, темпера, лок.

Uning “Maktub”(2014), “Shoir Bobur”(2018) kabi miniatyura asarlari, lokli miniatyura san’ati va yog‘och o‘ymakorligi bilan hamohanglikda ajoyib asarlar yaratish mumkinligiga yaqqol misoldir. Bu sintezni A.To‘xtaevning “Kampir, chol va baliq”(2016), “Musiqachilar”(2017), Z.Xakimovning “Karvon”(2018), kabi asarlarida ham kuzatishimiz mumkin.

Demak, yuqoridagi taxlillardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’ati, xususan lokli miniatyura san’atining rivojida Ch.Axmarov, N.Xolmatov, Sh.Muxamedjonov, G’.Komolov, M.Sabirov, T.Boltaboev, X.Nazirov kabi miniatyura rassomlari va ularning erkin ijodi uchun imkon yaratib bergen san’at rahnamolari va tashkil etilgan birlashmalar faoliyatining o‘rni beqiyos bo‘lgan. Mustaqillik yillarida o‘z asarlarini turli satxlarda lokli kompozitsiyalar bilan hamohanglikda ishlayotgan Sh.Shoaxmedov, M.Po‘latov, B.Xojdimetov, A.Isroilov, A.To‘htaev, Sh.Shomansurov, Z.Xakimov, Q.Shoislomov, X.Muhiddinov, K.Omonov kabi keiyngi avlod vakillarining asarlari esa yangi yetishib kelayotgan yosh avlod miniatyura rassomlari uchun ijodiy manba va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Bu esa o‘z navbatida Respublikamizda tasviriy va amaliy san’atning rivojiga keng yo‘l ochib berayotgani va yosh avlodni milliy ruhdagi an’anaviy san’at turlariga qiziqqan holda tarbiya topishiga katta hissa qo‘sishi shubhasizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shoyoqubov Sh. O‘zbekistonning bugungi miniatyura rangtasviri. Musavvir. - Toshkent, 1994.
2. Shoyoqubov Sh. Zamonaviy o‘zbek miniatyurasi. Albom. –Toshkent: 2006.
3. Akilova K. Lakli miniatyura: shakllanish muammolari. // San’at. №1-3. –Toshkent: 1998.
4. Gyul E. Kitob qo‘lyozmalarining qayta tug‘ilishi.// San’at. №1. –Toshkent: 2000.